

ENERGETIC BOYS terma jamoasi shakllantirildi

Jori yilning 16-oktyabr kuni universitetimizning "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakultetida "Yoshlar ittifoqi" ,fakultet tyutorlar jamoasi, fakultet faollari, hamda dekan muovini I.Buxorov tomonidan 2-bosqich talabarlari o'rtasida "Dekan kubigi" futbol musobaqasi bo'lib o'tdi. O'yin qizg'in, murosasiz bo'lishiga qaramay tashkilotchilar nazoratni saqlab tura olishdi. Musobaqada 201-guruh 3-o'rin 202-guruh 2-o'rin 209-guruh 1-o'rinni qo'lga kiritishdi. O'zini ko'rsata olgan futbolchilar "ENERGETIC BOYS" nomi ostida fakultet sharafini himoya qilish uchun terma jamoaga qabul qilinib, yo'llanmani qo'lga kiritishdi. Talabalar bu musobaqadan madaniy hordiq olgan holda, dam olish kunlari yana tashkillashtirishni so'rashdi. Shu bilan talabalar minnatdor bo'lib uyga ketishdi.

